ALISHER NAVOIYNING “NAZMUL-JAVOHIR” ASARIDAGI ASLIYAT VA TABDIL MASALALARI

Pardayeva Madinabonu

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning 1985-yil bitilgan “Nazmul-javohir” asarining matniy-qiyosiy tahlili xususida so’z boradi. Maqolada asarning mavjud qo‘lyozma manbalari, S.G‘aniyeva tabdili hamda M.Rashidova tomonidan tayyorlangan ilmiy-tanqidiy matnlari o‘zaro chog‘ishtirilib, matn tahqiqi, asliyat (arabcha matn) va tabdildagi leksik, semantik hamda imloviy tafovutlar, kotiblar va nashr mas’ullari yo‘l qo‘ygan xatoliklar ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so‘zla*r: Alisher Navoiy. “Nazmul-javohir”, matnshunoslik, ilmiy-tanqidiy matn, qo‘lyozma, tabdil, asliyat, matn tahqiqi.*

Аннотация: *В данной статье представлен текстологический сравнительный анализ произведения Алишера Навои «Назмуль-джавохир», написанного в 1985 году. В статье сравниваются существующие рукописные источники произведения, перевод С. Ганиевой и научно-критические тексты, подготовленные М. Рашидовой, и научно обосновывается текстологический анализ, оригинал (арабский текст) и перевод, лексические, семантические и грамматические различия, ошибки, допущенные переписчиками и редакторами.*

Ключевые слова: *Алишер Навои. «Назмуль-джавохир», текстология, научно-критический текст, рукопись, перевод, оригинальность, текстологический анализ.*

Abstract:*This article presents a comparative textual analysis of Alisher Navoi’s work “Nazm ul-Javohir” (composed in 1985). It compares the work's existing manuscript sources, the adaptation by S. G‘aniyeva, and the scholarly-critical texts prepared by M. Rashidova. The study provides a scholarly analysis of the text, examining lexical, semantic, and orthographic discrepancies between the original (Arabic text) and the adaptation, as well as errors made by scribes and those responsible for publication.*

Keywords: *Alisher Navoi, “Nazm ul-Javohir”, textual criticism, scholarly-critical text, manuscript, adaptation, original text, textual analysis.*

Matnshunoslik fanining eng muhim vazifasi va dolzarb masalalaridan biri mumtoz adabiy manbalar matnini tahqiq etish, asliyat hamda zamonaviy tabdillar o‘rtasidagi xatoliklar,lisoniy va imloviy tafovutlar aniqlab, ma’no sharhlash bilan bog’liq noaniqliklarni tahlil etishdan iboratdir.

Alisher Navoiy asarlarining eski o‘zbek yozuvidagi qo‘lyozma nusxalarini tadqiq etish qadimiy yozma merosni saqlash va ilmiy muomalaga kiritishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tegishli qarorlarida qadimiy qo‘lyozmalarni saqlash, o‘rganish, ilmiy asosda tadqiq etish hamda ularning elektron nusxalarini yaratish vazifalari belgilangan.[1] [61] Shu jihatdan Navoiy asarlarining turli davrlarda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxalarini qiyosiy o‘rganish, matn variantlarini aniqlash va ularni ilmiy muomalaga kiritish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Bugun ilm-fan taraqqiy etgan bir davrda ustozlarimiz , navoiyshunos olimlar bu borada juda ulkan ishlar qilishyapti.Xususan, kitob sifatida ro‘yxatga olingan, biroq muallifi va nomi aniqlanmagan ko‘plab manbalar ustida ham ilmiy izlanish amalga oshirilyapti. Shu o‘tgan davr mobaynida o‘zbek matnshunosligi sohasi sezilarli darajada rivojlandi: O‘zR FA Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar fondining ikki jildli katalogi nashr etildi, respublikamizdagi asosiy fondlarda saqlanayotgan qo‘lyozma va toshbosma manbalarning ichki kataloglari tuzilib, elektron ma’lumotlar bazasi shakllantirildi[62]. Bugungi kunda matnshunosligimiz oldida turgan navbatdagi mas’uliyatli bosqich — mazkur manbalar bazasi asosida ilmiy tadqiqotlarni monografik planda chuqurlashtirish, Porso Shamsiyev kabi matnshunoslik darg‘alari boshlab bergan ilmiy-tanqidiy matn tayyorlash an’anasini munosib davom ettirishdir.Shu bilan birga matnning asl haqiqatini tiklash sohaning muhim vazifalaridan ekani marchamizga ma’lum.Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning ko’plab asarlari qayta tahqiq etilib nashrga tayyorlanayotgani ham bejizga emas. Shuningdek, ulug’ ijodkorning “Nazmul-javohir” asari ham biroz tahqiq etishga muhtojdek.

Alisher Navoiyning “Nazmul-javohir” asari Hazrati Ali (r.a.)ga nisbat beriluvchi “Nasrul laoli” (“Durlar nasri”) nomli arabcha hikmatli so‘zlar majmuasining turkiy nazmiy talqinidir. Navoiy har bir arabcha nasriy hikmat ostida uning ma’nosini ochib beruvchi bir baytli ruboiy (to‘rtlik)

[61] Mirziyoyev Sh.M. Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2022-yil 10-fevral. — Toshkent.

[62] R.Zohid. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik. O‘quv qo‘llanma. T.: Yashil yaproq nashr-matbaa uyi, 2023, 109-bet.

keltirgan.Tadqiqot davomida biz “Nazmul-javohir” asarining saqlanib qolgan mo‘tabar qo‘lyozma nusxalari, Suyima G‘aniyeva tomonidan amalga oshirilgan tabdil (kirill alifbosidagi nashri) hamda Ma’mura Rashidova tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matn o‘zaro chog‘ishtirdik. Tahlillar natijasida quyidagi bir nechta tafovutlar aniqlandi:

1. Shakliy va imloviy ziddiyatlar (42-ruboiy)

Asliyatdagi hikmat: الحلم في المرء جمال (Jamol ul-mar’i fil-hilmi) — Tarjimasi: ishining husni — muloyimligidadir.

S. G‘aniyeva tabdilida:

Har kimdagi dahr ichinda donoliq erur,
Hilm ila ish anga majlisoroliq erur,
Oyini tahammulda tovonliq erur,
Yuk chekmak uyla kishiga zeboliq erur.

M. Rashidova ilmiy-tanqidiy matnida:

Har kimgaki dahr ichinda donoliq erur,
Ilm ila ish anga majlisoroliq erur,
Oyini tahammulda tovonoliq erur,
Yuk chekmak ayla kishiga zebolig‘ erur.

Tahlil: Har ikki matn o‘rtasida shakliy va leksik ziddiyatlar mavjud. Asliyatda gap hilm (muloyimlik, bosiqlik) haqida ketayotganiga qaramay, M.Rashidova matnida 2-misrada “ilm” deb o‘qilgan, vaholanki ma’no va vazn talabiga ko‘ra “hilm” to‘g‘ridir. Shuningdek, 3-misradagi “tovanliq” va “tovonoliq”, 4-misradagi “uyla” va “ayla” so‘zlari kotibiy hamda transkripsion tafovutlar natijasidir.

2. O‘qish va ma’nodagi noaniqliklar (48- va 53-ruboiylar)

48-ruboiy: M.Rashidova matnining 2-misrasida “...buxl ma’rig‘a...” tarzida xato o‘qilgan. Qo‘lyozma va asliyat mazmuniga muvofiq ravishda “...buxl amrig‘a mone’ bo‘lg‘il” deb o‘qilishi kerak.

53-ruboiy: Ruboyining 4-misrasi tabdilida “aybig‘a” so‘zi o‘rniga tasodifiy xatolik bilan “aynig‘a” shaklida bosilib ketgan.

3. Matn tushib qolishi va raqamlashtirishdagi tafovut (123 / 124-ruboiy)

Nashrlarda 123-tartib raqami bilan berilgan ruboiy qo‘lyozma manbalarda 124-bo‘lib keladi. Hikmatli so‘z matnida noma’lum sabablarga ko‘ra bir so‘z tushib qolgan:

Nashrdagi shakli: صدق نجاته المرء (Sidq ul-mar’i najotuhu)

Qo‘lyozmadagi asliyati: صدق نجاته المرء صدق (ikkinchi “sadaqa/sidq” so‘zi tushirib qoldirilgan).

Ushbu hikmatga bitilgan ruboiyning 4-misrasida ham garmonik va vazniy xatolikka yo‘l qo‘yilib, “va” hamda “-da” yuklamalari noto‘g‘ri o‘qilgan:
Sidq ichra qachonki chiqsa oti erning,
Fosh o‘lsa sadoqatda sifoti erning,
Xushroqki tavil o‘lsa hayoti erning —
Kim, sidqdin-o‘q durur najoti erning.

4. Arabcha grammatik shakl va fe’l nisbatlari tahlili (56- va 57-ruboiylar)

56-ruboiy: M.Rashidova va S.G‘aniyeva matnida arabcha hikmat لمن الوفاء حرم له اصل لا (Harrama-l-vafa’a liman la asla lahu) deb berilgan. Vaholanki, “Nasrul laoli” ning asl nusxalarida fe’l majhul nisbatda — لمن الوفاءُ حُرِمَ له اصل لا (Hurima/Haruma-l-vafa’u...) shaklida keladi.

Grammatik tahlil: حرم (harrama) — “taqiqlamoq” (faol nisbat); حُرِمَ (hurima/haruma) — “taqiqlanmoq, mahrum bo‘lmoq” (majhul nisbat). Hikmatlarda asosan fe’llar majhul nisbatda qo‘llanganligi sababli, “Asli yo‘q/yomonga vafo taqiqlanadi (mahrumdir)” mazmunida majhul shaklni qo‘llash to‘g‘ri hisoblanadi.

57-ruboiy: M.Rashidova nashrida hikmat حسن الخلق حنيمة (Husnul-xulqi hanimatun) shaklida noto‘g‘ri bosilgan. Qo‘lyozmada, S.G‘aniyeva tabdilida va “Nasrul laoli” asliyatida حسن الخلق غنيمة (Husnul-xulqi g‘animatun — “Xushxulqlik g‘animatdir”) shaklida g‘animat so‘zi to‘g‘ri berilgan.

5. Qo‘pol ma’no buzilishlari va transkripsiya xatolari (84-ruboiy)

Matniy tadqiqotimizdagi eng yaqqol xatolik 84-ruboiyda kuzatiladi. Ikkala zamonaviy nashr va tabdillarda arabcha hikmat quyidagicha o‘qilgan:

Xato o‘qilishi: صدقة الله عند غريض الفقر دليل (Dalilul-faqri g‘arizun indallahi sadaqa).

Qo‘lyozma asliyatidagi haqiqiy matn: الله عند عزيز الفقر ذليل (Zalilul-faqri azizun indallahi).

Tarjimasi: “Faqirlarning eng xori (kamtari) Allohning huzurida azizdir”. Tahlil: Qo‘lyozmadagi ذليل (zalil — xor, kamtar) so‘zi transkripsiyada دليل (dalil) deb, عزيز (aziz) so‘zi esa غريض (g‘arizun) deb butunlay xato o‘qilgan. Bu esa hikmatning asl falsafiy va axloqiy mazmunini to‘liq buzilishiga olib kelgan.

146-ruboiy

Odob talabida bo‘lish- dunyo talab etishdan a’loroqdir.
Haq yo‘lida nafsingg‘a taabdur yaxshi,
Nekim sanga amri etti, talabdur yaxshi,

Dema tarab aylarda zanabdur yaxshi-
Kim, andin El istarg‘a adabdur yaxshi.

Ruboiyning 3-misrasidagi “ …zanabdur yaxshi” xatodir. “zanab” degani arabchada “dum” dir. Bunda ma’no buziladi, keltirilgan hikmatga ko‘ra “zahab ”, ya’ni oltin bo‘lishi kerak edi. M. Rashidovaning ilmiy-tanqidiy matnida to‘g‘ri berilgan.

Nashrda 156-bo‘lib kelgan ruboiyda ham ayrim xatolar mavjud bo‘lib, buni o‘zaro solishtirish natijasida ko‘rish mumkin.Suyima G‘aniyeva nashrida quyidagicha keltirilgan:

Zill ul-karimi vasi’un
Mukrim ishini ko‘rki, bade’ o‘ldi base,
Bog‘ida harif anga rabe’ o‘ldi base,
Chun guli murod anga rafe’ o‘ldi base,
Ul naxlg‘a ham soya vase’ o‘ldi base.

Ushbu keltirilgan ruboiydan ko‘rinib turibdiki, hikmatli so‘zdagi oxirgi “fasi’un” so‘zi “vasi’un” tarzida, 3-misradagi “nihol” so‘zi guli va “nahl ” tarzida o‘qilgan.

164-ruboiy “Hikmatlarni kitoblardan yig‘avermasdan yodlab ol! ”.

Bu ruboiy ilmiy-tanqidiy matnda 167-tartib bilan kelgan bo‘lib, xatolardan xoli emas. “Xat aylamasang varaq yig‘ib titgaysen ”, ya’ni agar yozmasang, varaq titkilaysan yoki varaqlarni titasan kabi ma’no anglashilyapti. Sarlavhadagi himatda kitoblardagi hikmatlarni yozib olib, yig‘ib yurish haqida emas, balki yod olish haqida so‘z ketyapti. Demak, S.G‘aniyeva tayyorlagan variant to‘g‘ri. Ma’no quyidagicha: “Yodlamaydigan bo‘lsang, varaqlarni (hikmat) yig‘ib nima qilasan ”.

235-ruboiyda Halok ul-mar’i fil-usbi
Kasb ayla nishot mehnatoyinlik aro
Kim, ishrat umidi keldi g‘amginlik aro,
Ko‘rma aroda o‘zingni miskinlik aro
Kim, bo‘ldi, kishi haloki xudbinlik aro.

Suyuma G‘aniyeva tabdilida *usbi* tarzda xato ketgan.Ma’mura Rashidova bu so‘zni *ujbi* tarzda yozgan. Aniqlik kiritish uchun qo‘lyozmaga murojaat qildik.

Qo‘lyozmada ham ujbi so‘zi ishlatilgan ekan.

Tarjima: xudbinlik kishini halok qiladi.

Shuningdek, 268-ruboiyda “Kishi baxtni baxt egasi bilan suhbatda topar” Hikmatini izohida ham xatolar bor:

Ubbod aro bo‘lg‘on el ibodatg‘a yetar
Bo‘lg‘on kishi mustafid ifodatg‘a yetar

“Xush odat el ichra yaxshi odatg‘a yetar” deya ilmiy-tanqidiy matnda berilgan. Ammo qo‘lyozmada “ Xush odat el ichra odatg‘a yaxshi yetar” deyilgan.

Xulosa qilib aytganda, bu kabi xatolar ustida chuqurroq ishlash va jahon miqyosidagi fondlarda saqlanayotgan asarning qo‘lyozma nusxalarini ham ko‘rib chiqish darkor. Asar bugungi yoshlar ma’naviyati uchun qimmatbaho merosdir.“Mutolaa” ilovasida ham shu xatolar bilan turgani kishini biroz ranjitadi. Shu sababdan ushbu asarning qayta tahqiq etilgan nashrini tayyorlash matnshunosligimizning muhim masalasi bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. — Toshkent: Tamaddun, 2018.
2. Zohidov R. So‘fi Olloyor. Sabotul ojizin. — Toshkent: Cho‘lpon.
3. Zohid R. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Yashil yaproq nashr-matbaa uyi, 2023. — 109 b.
4. Navoiy Alisher. Vaqfiya // Mukammal asarlar to‘plami: 20 jildlik. — Toshkent: Fan, 1998. — 14-jild. — B. 231–270.
5. Rajabova M. “Nazmul-javohir” tarixiga oid muhim manba // Alisher Navoiy ijodiy va ma’naviy merosining olamshumul ahamiyati: xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. — Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
6. Ражабова М. “Назмул-жавоҳир” манбалари ва бадиияти: филол. фан. номз. дис. ... автореф. — Тошкент, 2006. — 25 б.
7. Рашидова М. “Назмул-жавоҳир” асарининг матний тадқиқоти: филол. фан. номз. дис. ... автореф. — Тошкент, 1990. — 74 б.
8. Алишер Навоий. Асарлар: 20 томлик. — 15-том. — Тошкент, 1999.
9. Ғаниева С. Ҳар бирини тўрт дурри гавҳар дегил // Имом ал-Бухорий сабоқлари. — 2001. — № 3. — Б. 211–214.
10. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. — Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979.
11. Ғаниева С. Ҳар бирини тўрт дури гавҳар дегил // Имом ал-Бухорий сабоқлари. — 2002. — № 3. — Б. 210–212.